

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»

Jizzax davlat pedagogika universiteti

prof. Sh.S. Sharipov


2025 yil


Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni JDPU  
Davolash ishi va pediatriya ishi ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida  
o'qishga qabul qilish bo'yicha  
DASTUR

JIZZAX -2025

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, oliy va professional ta'lim muassasalarining o'zaro integratsiyasini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 11.01.2022 yildagi 17-sonli Qaroriga asosan ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

 N. Kurbonov Umumkasbiy fanlar kafedrasida v.b. dotsenti, t.f.d., dotsent

 N. Shodmonov Umumkasbiy fan kafedrasida v.b. dotsenti, t.f.n.

**Taqrizchilar:**

G'. Arifxodjayev Jizzax DPU dotsenti, t.f.n.

L. Gazyev RORIATM, t.f.f.d., dotsent

**KIRISH**

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, oliy va professional ta'lim muassasalarining o'zaro integratsiyasini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 11.01.2022 yildagi 17-sonli Qaroriga asosan ishlab chiqilgan va Vazirlar Mahkamasining 11.01.2022 yildagi 17-sonli Qaroriga asosan tasdiqlangan "TEXNIKUMLARNI MUVAFFAQIYATLI TAMOMLAGAN BITIRUVCHILARNI OLIY TA'LIM MUASSASALARINING BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHLARIGA SUHBAT ASOSIDA O'QISHGA QABUL QILISH TARTIBI TO'G'RISIDAGI NIZOM" asosida suhbat o'tkaziladi.

**1. Suhbat jarayonini tashkil etish va o'tkazish:**

Oliy ta'lim muassasasi rektori 10-avgustga qadar o'z buyrug'i bilan har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha alohida Suhbat komissiyasini tuzadi.

Suhbat komissiyasi 9 nafardan kam bo'lmagan tarkibda tuziladi va uning tarkibiga kadrlarning asosiy ish beruvchilari bo'lgan tashkilotlar va oliy ta'lim muassasasi bo'ysunuvi bo'yicha vazirliklar va idoralarning mas'ul xodimlari, sohaga taalluqli texnikumning malakali o'qituvchisi hamda boshqa oliy ta'lim muassasasining tegishli soha bo'yicha professor-o'qituvchisi kiritiladi.

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha suhbat jarayoni to'liq videokuzatuv ostida o'tkaziladi va jarayon ota-onalar, kuzatuvchilar uchun ajratilgan alohida kutish joyiga ovozi tarzda onlayn translatsiya qilib boriladi.

Suhbat jarayoni to'liq va sifatli videokuzatuv ostida o'tkazilishini va videoyozuvlarning kamida uch yil oliy ta'lim muassasasida saqlanishini ta'minlash mas'uliyati shaxsan oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) zimmasiga yuklatiladi.

Bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha o'tkaziladigan suhbat jarayoni har yili 10-avgustdan 25-avgustgacha, oliy ta'lim



muassasasi tomonidan belgilangan muddatda, Suhbat komissiyasi tarkibining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda o'tkaziladi.

Suhbat o'tkazish muddatlari suhbat jarayonlari boshlanishidan kamida bir hafta oldin oliy ta'lim muassasasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Suhbat jarayoniga jamoatchilik vakillari ham xolis kuzatuvchi sifatida jalb etilishi mumkin.

Belgilangan muddatlarda suhbatga kelmagan bitiruvchilarga shu o'quv yili uchun qayta suhbat o'tkazilmaydi va ular oliy ta'lim muassasasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining 2-bosqichidan o'qishga qabul qilinmaydi.

Bitiruvchi uzrli sabablarga ko'ra (kasalligi, xizmat safarida bo'lganligi yoki oila a'zolarining vafot etganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etganda) suhbatda ishtirok eta olmaydigan bo'lsa yoki ishtirok etmasa, suhbat o'tkazilgan sanadan uch kundan kechikmay oliy ta'lim muassasasida tuzilgan qabul komissiyasiga murojaat etishi lozim. Mazkur toifadagi bitiruvchilar uchun suhbat jarayonlari to'liq yakunlanganidan so'ng bir hafta muddat ichida qo'shimcha suhbat o'tkaziladi.

## **2. Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga quyidagi mavzular bo'yicha bittadan jami to'rtta savol beriladi:**

mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish;

bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish);

shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);

tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi.

## **3. Baholash mezonlari**

Jami to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi.

Mazkur savollar bo'yicha baholash mezonlari tegishli oliy ta'lim muassasasi tomonidan ishlab chiqilib, tasdiqlanadi hamda ularning rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinadi.

Savollar oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan suhbat natijalarini qayd etish varag'iga har bir bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbat natijasiga ko'ra ball belgilab boriladi va imzolanadi.

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan to'ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar hisoblab chiqiladi, bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rinlarda — suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i) to'ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi 67 ball va undan yuqori bo'lganda abituriyent suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida abituriyentlarga o'qib eshittiriladi.

## **4. Apellyatsiya komissiyasi**

Oliy ta'lim muassasasida suhbatlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya shikoyatlari suhbat natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida oliy ta'lim muassasasida to'g'ridan to'g'ri yozma shaklda yoki Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn shaklda qabul qilinadi va apellyatsiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda videoyozuv asosida ko'rib chiqiladi.



### 5. Suhbat natijalari

Suhbat natijalariga ko'ra talabalikka tavsiya etilganlar to'g'risidagi ma'lumotlar natijalar e'lon qilingan kundan boshlab uch kun muddatda oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan bo'ysunuvchi bo'yicha vazirlik, idoraga taqdim etiladi.

Suhbat komissiyasining suhbat natijalarini qayd etish hamda suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varaqlari uch yil oliy ta'lim muassasasida saqlanadi.

Suhbat komissiyasi a'zolari mehnatiga haq to'lash oliy ta'lim muassasalari talabalariga o'quv mashg'ulotlarini olib borganlik uchun belgilangan soatbay haq to'lash shartlarida oliy ta'lim muassasasining budjetdan tashqari to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

### 6. Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni JDPU

Tibbiyot fakulteti bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish bo'yicha savollar

1. Mahalliy sog'liqni saqlash amaliyotining asosiy komponentlari va tamoyillari.
2. Tibbiy etika asoslari (deontologiya).
3. Nafas tizimi kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni parvarishi va ularning nazorati.
4. Tibbiy xizmat turlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 25-maydagi PQ-5124-sonli Qarorining mazmuni va mohiyati haqida yoritish.
6. Onkotik bosim haqida ma'lumot bering.
7. Davolash muassasalarining turlari.
8. Dispanser haqida ma'lumot bering.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2023-yil 1-maydagi PQ-140-sonli Qarorining mazmuni va mohiyati haqida yoritish?
10. Shifoxona qabul bo'limi haqida ma'lumot bering.
11. Bemorlarni sanitar-gigienik parvarishi.
12. Terminal holat tushunchasi?
13. Sog'liqni saqlash haqidagi qonunning mazmuni haqida ma'lumot bering.
14. Operatsiyadan keyingi muddatda ovqatlantirish tushunchasi?
15. Narkoz haqida ma'lumot bering.
16. Jarrohlik usullari qanday?
17. Nafas olish tizimi va kasalliklari haqida ma'lumot bering.
18. Operatsiyadan keyingi davr to'g'risida tushuncha.
19. Biopsiya haqida ma'lumot bering.
20. Bosh hamshira faoliyati haqida ma'lumot bering?
21. Bemorlarni shaxsiy gigiyenasi to'g'risida ma'lumot bering.

22. Qon aylanish tizimi va kasalliklari.
23. Biriktiruvchi to'qima haqida ma'lumot bering.
24. Kasalxona ichi infeksiyasi haqida ma'lumot bering.
25. Limfaretikulyar tizim.
26. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin sog'liqni saqlash, aholining tibbiy madaniyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar?
27. Evtanaziya tushunchasi nima.
28. Qon oqsillari haqida ma'lumot bering.
29. "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Prezident qarorining mazmuni va mohiyatini yoritish?
30. Arterial bosim haqida ma'lumot bering.
31. Antiseptika haqida ma'lumot bering.
32. Zamonaviy o'rta tibbiyot xodimining kasbiy kompetensiyalarini aytish.
33. Aseptika haqida ma'lumot bering.
34. Sog'liqni saqlash tashkilotlarining o'rta tibbiyot xodimlarini attestatsiyadan o'tazish.
35. Jigar tuzilishi va funksiyasi.
36. Kollaps nima.
37. Arterial qon bosim va pulsni o'lchash
38. Shifoxona qabul bo'limining ish hujjatlari haqida ma'lumot bering?
39. O'pka tuzilishi va funksiyasi.
40. Gipertermiya nima?
41. Bolalarni tarbiyalash va parvarish qilishda asab tizimining qanday ahamiyati bor?
42. Bolalarda teri qoplami va suyak tizimining o'ziga xos xos qanday xususiyatlari bor?
43. Yurak qon tizimining yoshga bog'liq o'ziga xos xususiyatlari?
44. Oshqozon ichak traktining anatomik fiziologik xususiyatlarini aytib o'ting?
45. Siydik hosil qilish va siydik ajratish tizimining o'ziga xos xususiyatlari?
46. Siz qaysi davolash profilaktika muassasalarini bilasiz?
47. Bolalar kasalxonasining asosiy binolarini sanab o'ting.
48. Preagonal xolat nima?
49. Biologik o'lim konstatatsiya qilingandan so'ng tibbiyot xamshirasi bajarishi kerak bo'lgan xarakterlar haqida yoritib bering?
50. Qon aylanishi va nafas olish tuxtab qolganda birinchi yordam qanday ko'rsatiladi?
51. O'pka-yurak reanimatsiyasi qanday amalga oshiriladi?
52. Agoniya xolati haqida ma'lumot bering?
53. Moddalar almashinuvi va biomembranalarda haqida gapiring?
54. Parenteral narkoz.
55. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash tizimini isloh qilish dasturida qanday masalalar haqida so'z boradi?
56. Qon quyish usuli nima maqsadda qo'llaniladi?
57. Auskultatsiya haqida ma'lumot bering?
58. Xalq tabobati nimaga asoslanadi?



59. Nerv sistemasi, bosh miya faoliyati haqida ma'lumot bering?
60. Anamnesis morbi.
61. Anamnesis vitae.
62. Bemorning ong holatlari haqida yoriting.
63. Ko'rish sistemasi va analizatori haqida ma'lumot bering?
64. Artmiya nima?
65. Isitmaning turlari haqida gapiring?
66. Immun sistemasi, immunitet.
67. Rentgenologik tekshirish usullari?
68. Yurak shovqinlarini eshitish usullari.
69. Pulsni tekshirish.
70. Turli tipdagi sog'liqni saqlash tashkilotlarini tashkiliy tuzilmasi.
71. Gen kasalliklari haqida ma'lumot bering?
72. Fermentlar va ularning organizmdagi ahamiyati
73. Ribosomalar haqida ma'lumot bering?
74. Harakat potentsiali nima?
75. Observator nima?
76. O'lat kasalligi.
77. Lizosomalar haqida tushuncha bering?
78. Sinapslarning klassifikatsiyasi.
79. Gepatit B tashxisi qo'yishda mos bo'ladigan serologik marker.
80. Sog'liqni saqlash tizimidagi muassasalarga qanday ob'ektlar kiradi.
81. Gametogenez haqida ma'lumot bering?
82. Markaziy nerv sistemasi haqida yoritib bering.
83. Deratizatsiyaning maqsadi.
84. Pestitsidlar xakida tushuncha, nomuvofiq okibatlar va oldini olish tadbirlari.
85. Qon va limfa haqida yoritib bering?
86. Miyaning qon bilan ta'minlanishi va likvor.
87. Tana harorati uch kundan ortiq bemorlardan qaysi infeksiyalarga qon olinadi?
88. Davolash-profilaktika muassasalarida dezinfeksiya va sterilizatsiya rejimlari.
89. Biriktiruvchi to'qima haqida ma'lumot bering?
90. Orqa miya va uning funksiyalari.
91. Tomografiya tushunchasini asoslab bering.
92. Davolash-profilaktika muassasalarida sanitariya-gigiena, epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar.
93. Muskul to'qimasi haqida ma'lumot bering?
94. Miyacha va uning funksiyalari.
95. Tibbiyot soxasida qattiq yoki yumshoq suvdan foydalanilgandagi salbiy ta'siri.
96. Metall tibbiy asboblarning sterilanganlik sifatini tekshirish usullari.
97. Nerv to'qimasi haqida ma'lumot bering?
98. Gumoral boshqarilish.
99. Avtoklavni qabul qilish, o'rnatish va sinash tadbirlarining bajarilishi
100. Paraproteinemiya nima?
101. Suyak to'qimasi haqida ma'lumot bering?
102. Ichki sekresiya bezlari va uning gormonlari haqida yoriting
103. Xamshiraning kasbiy vazifalariga nimalar kiradi?
104. Sterilizatsiya va uning turlari.

105. Qalqonsimon bez haqida yoritib bering?
106. Qon plazmasi va uning tarkibi
107. Leykoz kasalligining turlari?
108. Tibbiy asbob anjomlarni bikslarga joylash me'yorlari.
109. Qonning fizik-kimyoviy xossalari?
110. Oqsillarning eng muhim biologik funksiyalari.
111. Gematokrit tushunchasi haqida yoriting?
112. Anuriya tushunchasi.
113. Qon guruhlari va qon quyilish sxemasi haqida yoriting?
114. Koma va uning turlari.
115. Fermentlar to'g'risida tushuncha.
116. Umumiy klinik tekshiruv usullari.
117. Katta va kichik qon aylanish sistemasi haqida ma'lumot bering?
118. Tez yordam mashinalari va ularning saloniga sanitariya holatiga qo'yiladigan talab haqida ma'lumot bering.
119. Kimyoviy moddalar bilan zaharlanishda asosiy patologik sindrom va tez tibbiy yordam.
120. Tayanch-harakatlanish sistemasi.
121. Qon depolari haqida ma'lumot bering?
122. Limfa tarkibi va xossalari.
123. Tibbiy muolajalarni o'tkazishda olib boriladigan sanitariya epidimologiya qoidalari va uni amalga oshirish vositalari.
124. Birinchi shoshilinch tez yordam.
125. O'pka hajmi va sig'implari haqida yoriting?
126. Meningit. Kasallik belgilari.
127. Qon oqsillari haqida ma'lumot bering.
128. Dezuriya tushunchasi.
129. Nafasning boshqarilishini yoriting?
130. Yotoq yara asosiy hosil bo'lish sohalari aniqlang. Yotoq yaralarning I-bosqichida qanday parvarish amalga oshiriladi?
131. O'pka shishi turlari va sabablari.
132. Kuyish turlari va darajalari.
133. Hazm tizimining funksiyalari haqida yoriting?
134. "Mushak orasi" va "teri osti" in'yeksiyasini bajarganda qanday asoratlardan paydo bo'lishi mumkin?
135. Anoreksiya nima?
136. Gipertonik krizisda birinchi yordam.
137. Izolyator nima?
138. Antropometriya tushunchasi.
139. Irradiatsiya - nima?
140. Gemotransfuzion shokda birinchi tez tibbiy yordam.
141. Provizor gospiatal nima?
142. Apnoe va dispnoe tushunchasi.
143. Buyrak tuzilishi va funksiyasi.
144. Pollinoz kasalligi va birinchi yordam.
145. Operatsion blokda zonalar va uning ahamiyati.
146. Demensiya haqida tushuncha.



147. Anemiyaning turlari va belgilari.
148. Fagositoz haqida ma'lumot bering.
149. Desmurgiya tushunchasi va uning turlari.
150. Bronxial astma xurujida tez tibbiy yordam.
151. Gemotorks belgilari sabablari va tez tibbiy yordam.
152. Nefropatiya. Preeklampsiya. Eklampsiya. Belgilari va shoshilinch yordam.
153. Qonda ALT va AST ni aniqlash?
154. Kanserogenez tushunchasi haqida ma'lumot bering.
155. Giperglikemiya nima?
156. Uglevodlar qanday muhim funksiyani bajaradi.
157. Organizmda aminokislotalar va ularning funksiyasi haqida ma'lumot bering?
158. Eshitish organi tuzilishi.
159. Moddalar almashinuvda jigarning roli.
160. Retikulotsitlar va ularning klinik ahamiyati.
161. O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar haqida ma'lumot bering?
162. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan qon taxlili bo'yicha chiqarilgan qoidalar
163. Sterilizatsiya va uning turlari haqida ma'lumot bering?
164. Davolash-profilaktika muassasalarida yuqumli kasalliklar ro'yxatga olinganda shoshilinch xabarnoma berilish tartibi.
165. O'ta xavfli yuqumli kasalliklarining boshqa yuqumli kasalliklardan farq qiladigan jihatlari.
166. O't va ot suyuqligi.
167. Ichki muhit to'qimasi nima.
168. Davolash muassalari turlari.
169. Vabo kasalligining asosiy klinik alomatlari?
170. Sog'liqni saqlash xodimlarining huquq va majburiyatlari.
171. Gipotenziv dori vositalari.
172. Umurtqa pog'onasi.
173. "Sog'liqni saqlash to'g'risida" gi Qonunning mazmuni va mohiyatini yoriting?
174. Ichki sekresiya bezlari.
175. Qon bosimini o'lchash texnikasi va me'yoriy ko'rsatkichlari.
176. Disproteinemiya nima.
177. Gipertoniya kasalligiga olib keladigan sabablar, klinik belgilari.
178. Gastroenterit.
179. Uremik koma belgilari va tez tibbiy yordam.
180. OIV infeksiyasiga qon olish qoidalari va saqlanishi va tashib yetkazish qoidalari.
181. Kollapsda birinchi tez tibbiy yordam .
182. Pielonefrit kasalligi va kelib chiqish sabablari.
183. Glikozuriya tushunchasi.
184. Oqsil turlari
185. Miokard infarkti haqida yoritib bering?
- 186 Toksoplazmoz tushunchasi.
187. Bilirubinemiya haqida tushuncha.

188. Gipertireoz belgilarini ko'rsating.
189. Leykoz kasalligi haqida ma'lumot bering.
190. Polifagiya, polidepsiya, poliuriya, glyukozuriya, giperglikemiya qaysi kasallikka kuzatiladi?
191. Epidemik parotid kasalligining asoratlari.
192. Orqa miya faoliyati.
193. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 25-maydagi PQ-5124-sonli Qarorining mazmuni va mohiyati haqida yoriting?
194. Tayanch-harakat sistemasidagi ko'p uchraydigan kasalliklar.
195. Sterilizatsiya oldi tozalovi o'tkazish uchun yuvuvchi eritma tarkibi.
196. Izotonik eritma nima?
197. Arterial gipertenziyaga olib keluvchi xavfli omillarni sanab bering?
198. Revmatoid artrit.
199. Deontologiya tushunchasi.
200. Tibbiy vositalarning sterilanganlik sifatini fizikaviy usul bilan sinash tadbirining bajarilishi va ushbu usulning afzallik va kamchiliklari.
201. Limfadenit ta'rifini aniqlang.
202. Tibbiy vositalarning sterilanganlik sifatini kimyoviy usul bilan aniqlash, afzallik va kamchiliklari.
203. Shaxsiy ximoya vositalaridan foydalanish va uning ahamiyati.
204. Lipoma ta'rifini aniqlang.
205. Dezinfektsiyalovchi eritmalarni tayyorlash, saqlash va ishlatishga qo'yilgan talablarni ayti bering?
206. Qrim-Kongo gemorragik isitmasi.
207. Aseptikaning aralash tadbiri va uni bajarilishi.
208. Bronxial astma klinikasi va sabablari.
209. Frontit bu nima?
210. Teri nechta qatlamdan iborat.
211. Operatsiya maydonini zararsizlantirish uchun ishlatiladigan antiseptik moddalar.
212. Dori vositalarini rektal qo'llash texnikasi.
213. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tibbiyot sohasidagi vakolatlari mazmuni va mohiyatini yoritib bering?
214. Stenokardiya huruji, sabablari, klinik belgilari, hamshira taktikasi.
215. Insultning asosiy klinik belgilarini aniqlang
216. Vitaminlar va ularning funksiyalari.
217. Tibbiyotda etika tushunchasi.
218. Auskultatsiya qilish texnikasi.
219. Yurak astmasi va belgilari.
220. Organizmda mikroelementlar roli va ahamiyati.
221. Anafilaktik shokda tez tibbiy yordam.
222. Bemorning ong holatlari haqida yoriting.
223. Hid bilish va ta'm sezish analizatori haqida ma'lumot bering?
224. Qandli diabetda tananing qaysi qismi ko'proq parvarishga muhtoj bo'ladi?
225. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2023-yil 1-

maydagi PQ-140-sonli Qarorining mazmuni va mohiyati haqida yoriting?

226. Pnevotoraks belgilari va tez tibbiy yordam.

227. Bemorlarni sanitar-gigienik parvarishi.

228. Mutasiya va onkogenez.

229. Irsiy-genetik kasalliklar?

230. Nefropatiya. Preeklampsiya. Eklampsiya. Belgilari va shoshilinch yordam.

231. Skelet mushaklarining qisqaruvchanlik va cho'ziluvchanligi haqida tushuncha.

232. Umurtqa pog'onasi qiyshayishi.

233. "Sog'liqni saqlash to'g'risida" gi Qonunning mazmuni va mohiyatini yoriting?

234. Psixomotorli ko'zg' alishda tez tibbiy yordam

235. Nistagm nima.

236. O'tkir appenditsit tashxisi, shoshilinch yordam.

237. Mahalliy sog'liqni saqlash amaliyotining asosiy komponentlari va tamoyillari.

238. Nevralgiya va radikulitning klinik manzarasi.

239. Nafas tizimi kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni parvarishi va ularning nazorati.

240. Blefarit nima?